

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**XAYDAROV MIRSAID MIRJABBOROVICH**

**KUCHLI TA’SIR QILUVCHI YOKI ZAHARLI MODDALARNI QONUNGA  
XILOF RAVISHDA MUOMALAGA KIRITGANLIK UCHUN  
JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)**

**Xaydarov Mirsaid Mirjabborovich**

Kuchli ta’sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlikni takomillashtirish ..... 3

**Хайдаров Мирсаид Миржабборович**

Совершенствование ответственности за незаконный оборот сильнодействующих и ядовитых веществ..... 21

**Khaydarov Mirsaid Mirjabborovich**

Improvement of responsibility for illegal trafficking of potent or poisonous substances ..... 41

**E’lon qilingan ishlar ro’uxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI  
AKADEMIYASI**

**XAYDAROV MIRSAID MIRJABBOROVICH**

**KUCHLI TA’SIR QILUVCHI YOKI ZAHARLI MODDALARNI QONUNGA  
XILOF RAVISHDA MUOMALAGA KIRITGANLIK UCHUN  
JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.08 – Jinoyat huquqi. Jinoyat-ijroiya huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Yu963 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<https://akadmvd.uz>) va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Otajonov Abrorjon Anvarovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Rasulev Abdulaziz Karimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Xujakulov Siyovush Baxtiyorovich**  
yuridik fanlar doktori, professor

**Etakchi tashkilot:**

**Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 5-sentabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: [info@akadmvd.uz](mailto:info@akadmvd.uz)).

Dissertatsiya bilan Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1597-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 20-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 20-avgustdagi 24-raqamli reestr bayonnomasi).

**A.S. Tursunov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
yuridik fanlar doktori, professor

**A.D. Xusanov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**Sh.A. Kulmatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar  
doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda soʻnggi yillarda kuchli taʼsir qiluvchi moddalarning yangidan-yangi turlari paydo boʻlib, ularning isteʼmolchilari soni tobora ortib bormoqda. Butunjahon hisobotida qayd etilishicha, hozirda bunday moddalarning 1 184 turi aniqlangan boʻlib, dunyoda 300 millionga yaqin insonlar ushbu moddalarga qaramlikdan aziyat chekadi<sup>1</sup> va har yili taxminan 450 ming nafar insonlar psixofaol moddalar isteʼmolidan vafot etadi<sup>2</sup>. Oʻz navbatida bunday moddalarni isteʼmol qiluvchilar sonining ortishi ularning noqonuniy muomalasi bilan bogʻliq huquqbuzarliklar ham koʻpayishiga sabab boʻladi. Eng achinarlisi, bunday moddalar isteʼmoli aholi salomatligi va mamlakatlar genofondiga oʻta jiddiy salbiy taʼsir etadi. Bu esa ularning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari takomillashtirish zarurligini koʻrsatadi.

Jahonda kuchli taʼsir qiluvchi va zaharli moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy jihatlarini tadqiq qilish, bu turdagi jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan qonun normalarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida eʼtibor berilmoqda. Jumladan, mazkur moddalarning kontrabandasi, shuningdek kuchli taʼsir qiluvchi yoki zaharli moddalarni reklama qilganlik, voyaga yetmagan shaxslarga oʻtkazganlik uchun javobgarlikni kuchaytirishga qaratilgan jinoyat-huquqiy choralarni ishlab chiqish orqali maʼlum natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan bugungi zamonaviy sharoitlar kuchli taʼsir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashishning nazariy, amaliy va huquqiy muammolarini kompleks tarzda oʻrganishni, bu sohadagi mavjud muammolarni aniqlashni va ularga yechim berishni hamda bu turdagi jinoyatlarga qarshi kurashishni tartibga solishga doir qonun normalari va qonunni qoʻllash amaliyotini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar doirasida narkojinoyatlarga qarshi kurashish hamda aholining kuchli taʼsir qiluvchi moddalarga nisbatan immunitetini shakllantirish yoʻnalishidagi ishlarga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha 2024 – 2028 yillarga moʻljallangan milliy strategiyada oʻquvchi va talabalar orasida kuchli taʼsir qiluvchi dorilarni isteʼmol qilishga murossasiz munosabatni shakllantirish, taʼlim muassasalarida psixofaol moddalar tarqalishining oldini olishga qaratilgan yangi mexanizmlarni joriy etish, kuchli taʼsir qiluvchi moddalarning noqonuniy aylanmasining yangicha usullariga barham berish, shuningdek ushbu jinoyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, bu yoʻnalishdagi ilmiy izlanishlar, xulosalar, yutuqlar va yangiliklarni amaliyotga joriy etish kabilar ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu vazifalar kuchli taʼsir qiluvchi va zaharli moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari va qonunni qoʻllash amaliyotini takomillashtirish masalalarini tadqiq etishni taqozo etadi.

---

<sup>1</sup> Butunjahon narkotiklar boʻyicha hisoboti, 2023-yil // [https://www.unodc.org/res/WDR-2023/WDR23\\_SPI\\_Russian.pdf](https://www.unodc.org/res/WDR-2023/WDR23_SPI_Russian.pdf).

<sup>2</sup> 2024-yil 1-mart – Xalqaro narkomaniyaga qarshi kurashish kuni // <https://cgevtb.by/news/show/1-marta-2024-goda-mezhdunarodnyy-den-borby-s-narkomaniey>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktyabrdagi PF–4850-son “Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 14-maydagi PQ–3723-son “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 29-noyabrdagi PF–27-son “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son “O‘zbekiston–2030”strategiyasi to‘g‘risida”gi va 2024-yil 6-maydagi PF–73-son “O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga chek qo‘yish orqali ularning aholi salomatligi va mamlakatimiz genofondiga salbiy ta‘sirini bartaraf etish strategik chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon va qarorlari hamda sohaga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Kuchli ta‘sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlikning ayrim jihatlari mamlakatimizda Q.R. Abdurasulova, A.G. Zakirova, I. Ismailov, R. Kabulov, M.M. Kadirov, S.S. Niyozova, A.A. Otajonov, M.X. Rustamboyev, M.A. Rajabova, A.K. Rasulev, N.S. Salayev, F. Taxirov, S.U. Toshniyozov, B.A. Umarova, M. Usmonaliyev, M.K. Uteniyazov, M.Q. O‘razaliyev, A.S. Yakubov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan.

Xorijlik olimlardan I.V. Akimova, A.N. Baydin, O.A. Burkina, M.G. Yermakov, V.V. Kuxaruk, I.V. Lazenkova, A.A. Petrova, A.E. Shalagin, Ye.G. Shmelyeva va boshqalarning ishlari kuchli ta‘sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlari bag‘ishlangan<sup>3</sup>.

Respublikamizda kuchli ta‘sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish uchun javobgarlikni takomillashtirish bo‘yicha kompleks monografik tadqiqot o‘tkazilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirishning 2021-2026-yillarga mo‘ljallangan istiqbolli dasturining “O‘zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligi normalarini takomillashtirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** kuchli ta‘sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan jinoyat qonuni

---

<sup>3</sup> Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

normalari va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy va amaliy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

jinoyat qonunchiligining kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish uchun javobgarlik belgilangan normalarni retrospektiv tahlil qilish;

kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy shartlanganligini tahlil qilish;

ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilagan normalarni qiyosiy-huquqiy tadqiq etish, ularning ijobiy tajribasini milliy qonun hujjatlariga implementatsiya qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning obektiv belgilarini tahlil qilish;

kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning subektiv belgilarini tahlil qilish;

kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishni kvalifikatsiya qilish, uni o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash masalalarini tahlil qilish;

kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilagan normalarni va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning obekti** sifatida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilash bilan bog'liq jinoyat-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

**Tadqiqotning predmetini** kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik nazarda tutilgan jinoyat-huquqiy normalar, normativ-huquqiy hujjatlar, maxsus adabiyotlar, tergov va sud amaliyoti, statistik axborotlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda bilishning tarixiylik, mantiqiylik, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy-huquqiy tahlil, tizimli tahlil, umumlashtirish, statistik usullar, shuningdek sotsiologik so'rovlar o'tkazish, jinoyat ishlari va sud hukmlarini tahliliy o'rganish usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

kuchli ta'sir qiluvchi moddalarga ru'ju qo'ygan shaxslar soni kundan-kunga ko'payib, ularning noqonuniy muomalasi yanada avj olishiga sabab bo'layotganligini inobatga olib, bunday moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun jinoiy javobgarlik belgilash lozimligi asoslangan;

mamlakatimizda kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning devoriy, shuningdek internet tarmog'idagi reklamasi avj olayotganligi, bu esa ularni iste'mol qiluvchi yoki unga qiziquvchi shaxslar doirasi kengayishiga olib kelib, kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq holatlar ortishiga sabab bo'layotganligini inobatga olib, ularni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun jinoiy javobgarlik belgilash lozimligi asoslangan;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotlarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, o'quv yurtlari hududida va talaba (o'quvchi) larning yotoqxonalarida, shuningdek ularga tutash joylarda tarqatish, reklama qilish yoki namoyish etishning ijtimoiy xavfliligi ushbu harakatlarni boshqa joylarda sodir etishdan ko'ra yuqoriligi sababli mazkur qilmishlar uchun jinoyatni og'irlashtiruvchi tarkibi sifatida javobgarlik belgilash lozimligi asoslangan;

litsenziya olinishi talab etiladigan faoliyat turi bilan litsenziyasiz shug'ullanish qonunga xilof hisoblanishi sababli tarkibida kuchli ta'sir qiluvchi moddalar mavjud bo'lgan dori vositalarini bunga ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo'lmagan dorixonalarda realizatsiya qilish kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazish sifatida baholanishi va JK 251<sup>1</sup>-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

JK 251<sup>1</sup>-moddasida "kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni voyaga yetmagan shaxsga o'tkazish"ni javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilash lozimligi asoslantirilgan;

JK 251<sup>1</sup>-moddasida jinoyatni "xavfli residivist" va "o'ta xavfli residivist" tomonidan sodir etilishini javobgarlikni og'irlashtiruvchi holat sifatida belgilash lozimligi asoslantirilgan;

JK 251<sup>1</sup>-moddasini "shaxs o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida hokimiyat organlariga arz qilsa va kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni topshirsa, bunday moddalarning noqonuniy aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarga chek qo'yish yoki ularni fosh etishda faol ishtirok etsa, jazodan ozod qilinadi" mazmunidagi rag'batlantiruvchi norma bilan to'ldirish lozimligi asoslantirilgan;

kuchli ta'sir qiluvchi moddalar deganda, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxatiga kiritilgan, noto'g'ri qo'llanilishi oqibatida inson hayoti va sog'ligiga xavfli ta'sir ko'rsatadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik bo'lgan moddalar tushunilishi lozimligi asoslantirilgan;

zaharli moddalar deganda, zaharli moddalar ro'yxatiga kiritilgan, inson organizmiga tushganda og'ir zaharlanish yoki o'limga olib keladigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik bo'lgan moddalar, preparatlar, o'simliklar va materiallar tushunilishi lozimligi asoslantirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, xorijiy davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, sotsiologik tadqiqotlar (420 nafar tergovga qadar tekshiruv, tergov organlari, prokuror, sudya, advokat, pedagog va ilmiy izlanuvchilar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov tahlillari, tadqiq etilayotgan mavzuga oid 300 ta jinoyat ishi materiallarini o'rganish natijalari), statistik ma'lumotlar tahlilini umumlashtirish orqali asoslantirilgan, shuningdek olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalardan ilmiy faoliyatda,

“Jinoyat huquqi” fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda, kelgusida ushbu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, uning asosida shakllantirilgan taklif va tavsiyalardan norma ijodkorligi jarayonida, huquqni qo‘llash amaliyotida, oliy yuridik ta‘lim muassasalarida “Jinoyat huquqi” fanini o‘qitish jarayonida foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ilmiy tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish uchun jinoiy javobgarlik belgilash haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-oktyabrdagi O‘RQ–971-son Qonunining 1-moddasi ikkinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-noyabrdagi 3/08-221-son dalolatnomasi). Ushbu taklif jamoat xavfsizligi va aholi salomatligining jinoyat-huquqiy muhofazasini kuchaytirishga xizmat qiladi;

kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun jinoiy javobgarlik belgilash haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-oktyabrdagi O‘RQ–971-son Qonunining 1-moddasi birinchi bandi to‘rtinchi xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 11-noyabrdagi 3/08-221-son dalolatnomasi). Ushbu taklif kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarning qonunga xilof muomalasiga qarshi kurashish choralari kuchayishiga xizmat qiladi;

giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni targ‘ib qiluvchi mahsulotlarni maktabgacha ta‘lim tashkilotlari, o‘quv yurtlari hududida va talaba (o‘quvchi) larning yotoqxonalarida, shuningdek ularga tutash joylarda tarqatganlik, reklama qilganlik yoki namoyish etganlik uchun jinoyatni og‘irlashtiruvchi tarkibi sifatida javobgarlik belgilash haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-oktyabrdagi O‘RQ–971-son Qonunining 1-moddasi birinchi bandi beshinchi xatboshini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2024-yil 9-oktyabrdagi 20-1-1953-son dalolatnomasi). Ushbu taklif voyaga yetmaganlar va yoshlar salomatligining jinoyat-huquqiy muhofazasini kuchaytirishga xizmat qiladi;

tarkibida kuchli ta‘sir qiluvchi moddalar mavjud bo‘lgan dori vositalarini bunga ruxsatnomasi (litsenziyasi) bo‘lmagan dorixonalarda realizatsiya qilish kuchli ta‘sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda o‘tkazish sifatida baholanishi va JK 251<sup>1</sup>-moddasining tegishli qismi bilan kvalifikatsiya qilinishi lozimligi haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2021-yil 27-noyabrdagi “Kuchli ta‘sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish bilan bog‘liq jinoyat ishlari bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 33-son qarorining 19-bandini shakllantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2022-yil 20-iyundagi №PL-39-22-son ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif, kuchli

ta'sir qiluvchi moddalarni qonunga xilof ravishda o'tkazishni huquqiy baholashga yagona yondashuvning shakllanishiga hamda qilmishning to'g'ri kvalifikatsiyasiga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy jurnallarda 4 ta, xalqaro jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat bo'lib, hajmi 138 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqot etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning umumiy tavsifi**" deb nomlangan bo'lib, unda kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish uchun javobgarlik belgilangan normalarning rivojlanish tarixi, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zarurati hamda xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik masalalari tahlil qilingan.

Birinchi bobning birinchi paragrafi "*Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish uchun javobgarlik belgilangan normalarning retrospektiv tahlili*" deb nomlangan. Unda muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasining jinoyat qonunchiligi rivojlanishida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish uchun javobgarlikni tartibga soluvchi qonun normalarining vujudga kelishi va rivojlanishi retrospektiv tahlil qilinib, davrlarga bo'lib o'rganilgan. Tadqiqotchi har bir davrning o'ziga xos jihatlarini kompleks ravishda tahlil qilib, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilangan normalarning tarixiy rivojlanish xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan.

Muallif kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarning rivojlanish tarixini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lgan:

birinchi bosqich – shariat normalari amalda bo'lgan (VII asr oxirlaridan XX asr boshlariga qadar bo'lgan) davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda, musulmon huquqi

manbalarida insonni mast qiluvchi narsalarni iste'mol qilish taqiqlangan bo'lib, bunday qilmish uchun darra urib jazolash nazarda tutilgan.

ikkinchi bosqich – sobiq ittifoq davri, ya'ni 1920-yillardan 1991-yilgacha davom etgan bo'lib, mazkur vaqt oralig'ida 1922-yilda RSFSR Jinoyat kodeksida kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni bunga huquqi bo'lmagan shaxslar tomonidan tayyorlaganlik, saqlaganlik yoxud o'tkazganlik uchun javobgarlik belgilangan. 1926-yilda qabul qilingan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksida mazkur moddalarni saqlash, sotib olish va sotish hamda ularni ishlash, saqlash, berish, hisobga olish va tashish qoidalarini buzganlik uchun ham javobgarlik belgilangan. 1959-yilda qabul qilingan O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksida ushbu jinoyat subektiv tomonining zaruriy belgisi sifatida “sotish maqsadi” hamda ushbu moddalarni talon-toroj qilganlik uchun alohida normada javobgarlik belgilangan.

uchinchi bosqich – 1991 yildan hozirgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda jinoyat qonunchiligi inson huquqlari va manfaatlari ustuvorligi nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilib, O'zbekiston Respublikasining yangi Jinoyat kodeksi qabul qilingan va 2004-yilda kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi 251<sup>1</sup>-modda bilan to'ldirilgan. 2024-yilda Jinoyat kodeksining 251<sup>1</sup>-moddasi yangi tahrirda qabul qilinib, uning birinchi va ikkinchi qismlarida kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish, namoyish etish uchun, uchinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarida kuchli ta'sir qiluvchi yoxud zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun hamda oltinchi qismida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalar bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Dissertant tahlil natijalariga ko'ra amaldagi jinoyat qonunchiligida kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni o'tkazish maqsadini ko'zlamay qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo'natish uchun javobgarlik belgilash lozim, degan xulosaga kelgan.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy shartlanganligi”* deb nomlanib, unda muallif kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning ijtimoiy xavfliligini, uning uchun jinoiy javobgarlik belgilashning ijtimoiy shartlanganligini tahlil qilgan.

Tadqiqotda qayd qilinishicha, 2020-yilda kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish bilan bog'liq 230 ta jinoyat qayd etilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 748 tani tashkil etib, 2020-yilga nisbatan 3,3 baravarga oshgan. Noqonuniy muomaladan olingan kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning miqdori 2020-yilda 35 kg. 763 gramm bo'lgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 2020-yilga nisbatan 10,4 baravarga ko'payib, 373 kg. 084 grammni tashkil qilgan.

Dissertant kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning ijtimoiy xavfliligi va bunday qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilashning ijtimoiy shartlanganligini tahlil qilib, A.D. Antonov, M.M. Babayev, A. Begmatov, S.S. Bosxolov, Sh. Vahobov, V.E. Eminov, F. Yodgorov, N.Sh. Kozayev, N.A. Lopashenko, V.A. Maslov, A.V. Naumov, Yu.V. Nedotko, E.F. Pobegaylo,

L.M. Prozumentov, M.H. Rustambayev, G.M. Salimova, M.V. Tarasova, M. Usmonaliyevlarning qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilash masalasini hal etishda inobatga olinishi lozim bo'lgan omillar haqidagi fikrlarini o'rganib, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning ijtimoiy xavfi yuqoriligi, keng tarqalganligi, protsessual jihatdan isbotlash imkoniyatining mavjudligi va unga qarshi boshqa huquqiy vositalar bilan kurashishning samarasizligi, ushbu qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilash zaruratini ifodalaydi, degan xulosaga kelgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafi *“Ayrim xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilangan normalarning qiyosiy tahlili”* deb nomlangan. Unda muallif tomonidan ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilangan normalarning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan.

Dissertatsiya ishida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlikni tartibga soluvchi normalarning tuzilishiga ko'ra, xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligini uch guruhga bo'lish mumkinligi ilgari surilgan bo'lib, birinchi guruhga jinoyat qonunida kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning qonunga xilof muomalasi uchun javobgarlik belgilangan davlatlar (Armaniston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Bolgariya Respublikasi, Vengriya, Qirg'iz Respublikasi, Latviya Respublikasi, Mo'g'uliston Respublikasi, Ozarbayjon Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Ukraina va boshq.); ikkinchi guruhga jinoyat qonunida faqat zaharli moddalarning noqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan davlatlar (Albaniya Respublikasi, Moldova Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Hindiston va boshq.) va uchinchi guruhga jinoyat qonunida faqatgina kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlik belgilangan davlatlar (Gruziya, Tanzaniya, Ekvador va boshq.) kirishi qayd qilingan.

Dissertant tomonidan xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligining kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun javobgarlik belgilangan normalari jinoyat tarkibi elementlari, javobgarlikni og'irlashtiruvchi va alohida og'irlashtiruvchi tarkiblari va norma sanksiyalari bo'yicha qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, quyidagi xulosalarga kelingan:

kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish va ular bilan muomalada bo'lish qoidalarini buzganlik uchun alohida-alohida moddalarda javobgarlik belgilanishi (Armaniston, Belarus, Gruziya, Qirg'iz, Qozog'iston, Turmaniston va Tojikiston Respublikalari);

kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritgan shaxs o'z ixtiyori bilan aybini bo'yniga olish to'g'risida hokimiyat organlariga arz qilsa va kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni topshirsa, bunday moddalarning qonunga xilof aylanmasi bilan bog'liq jinoyatlarga chek qo'yish yoki ularni fosh etishda faol ishtirok etsa jazodan ozod etilishiga doir rag'batlantiruvchi norma kiritilishi (Armaniston, Ozarbayjon, Ukraina davlatlari);

kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni reklama qilganlik uchun alohida moddada javobgarlik belgilanishi (Armaniston Respublikasi);

kuchli ta'sir qiluvchi moddalarni voyaga yetmagan shaxsga o'tkazganlik uchun jinoyatning og'irlashtiruvchi tarkibida javobgarlik belgilanishi (Vengriya Respublikasi) maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning **“Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning jinoyat-huquqiy tahlili”** nomli ikkinchi bobida tadqiqotchi tomonidan kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning obektiv va subektiv belgilari hamda ushbu jinoyatning javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlari tahlil qilingan.

Ikkinchi bobning birinchi paragrafi *“Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning obektiv belgilari tahlili”* deb nomlanib, mazkur paragrafda kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning obekti, predmeti va obektiv tomoni belgilari bilan bog'liq ayrim muammoli holatlar o'rganilib, ularning yechimiga doir taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, muallif jinoyat predmeti hisoblangan *“kuchli ta'sir qiluvchi moddalar”* va *“zaharli moddalar”*ning tushunchalari normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topmaganligi bois turlicha talqin qilinayotganligini ta'kidlab, bu borada, E.A. Babayan, O.A. Burkina, M.G. Yermakov, S.Yu. Kosaryev, A.A. Otajonov, V.I. Petrova, A.A. Rasulyev, T.I. Reveko, M.H. Rustambayev, A.V. Tabakov, Ye.G. Shmelyevalarning kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning tushunchasi hamda belgilariga oid ilmiy qarashlarini tahlil qilib, jinoyat predmetlarining quyidagi mualliflik ta'riflarini ishlab chiqqan: *“Kuchli ta'sir qiluvchi moddalar deganda, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalar hisoblanmaydigan, kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxatiga kiritilgan, noto'g'ri qo'llanilishi oqibatida inson hayoti va sog'ligiga xavfli ta'sir ko'rsatadigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik bo'lgan moddalar tushuniladi.*

*Zaharli moddalar deganda, zaharli moddalar ro'yxatiga kiritilgan, inson organizmiga tushganda og'ir zaharlanish yoki o'limga olib keladigan, kelib chiqishi tabiiy yoki sintetik bo'lgan moddalar, preparatlar, o'simliklar va materiallar tushuniladi”.*

Dissertant bugungi kunda noqonuniy muomalasi uchun jinoiy javobgarlik belgilanishi lozim bo'lgan zaharli moddalarning miqdorlari, ular bilan muomalada bo'lish qoidalarini belgilab beruvchi normativ-huquqiy hujjatning yo'qligi, shaxslarni javobgarlikka tortishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarayotganligini ta'kidlab, bu borada M.G. Yermakov va A.A. Petrovalarning zaharli moddalarning ro'yxatida ularning miqdorlarini belgilash zaruratiga oid fikrlarini inobatga olib, ushbu masala Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Qirg'iz Respublikasida alohida Hukumat qarori bilan, Ozarbayjon Respublikasida esa alohida qonun bilan tartibga solinganligini ijobiy tajriba sifatida baholab, zaharli moddalar ro'yxati, miqdorlari, ular bilan muomalada bo'lish qoidalarini belgilab beruvchi Hukumat qarori ishlab chiqilishi lozimligi haqidagi taklifni ilgari surgan. Mazkur taklif sud va tergov organlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan anketa-so'rovda ishtirok etgan respondentlarning ko'pchiligi (85 foiz) tomonidan ma'qullangan.

Tadqiqot ishida kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda juda ko'p miqdorda muomalaga kiritganlik uchun alohida og'irlashtiruvchi tarkibida javobgarlik belgilash zarurati o'rganilib, bu borada M.G. Yermakov,

S.U. Toshniyozov, A.A. Petrovalarning kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning miqdoridan kelib chiqqan holda javobgarlikni differentsiatsiya qilish lozimligi haqidagi fikrlari, sud hukmlari hamda Gruziya, Ozarbayjon va Ukraina kabi davlatlarning bu boradagi tajribasi tahlil qilinib, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda juda ko'p miqdorda muomalaga kiritganlik uchun alohida og'irlashtiruvchi tarkibida javobgarlik belgilash lozim degan xulosaga kelingan. O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 91 foizi ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlagan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi *“Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning subektiv belgilari tahlili”* deb nomlanib, unda kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishning subekti va subektiv tomoni belgilari tahlil qilingan.

Dissertant Jinoyat kodeksining 251<sup>1</sup>-moddasida “residiv jinoyat” uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi va alohida og'irlashtiruvchi tarkiblar nazarda tutilmaganligiga e'tibor qaratib, tadqiqot davomida o'rgangan 300 ta jinoyat ishi materiallarining tahliliga ko'ra, ushbu modda bilan ko'rilgan jinoyat ishlarida ayblanuvchilarning 37 nafari xavfli residivist va 6 nafari o'ta xavfli residivist ekanligiga tayanib, ushbu jinoyat uchun javobgarlik belgilashda odillik prinsipiga rioya etilishini ta'minlash maqsadida, Jinoyat kodeksining 251<sup>1</sup>-moddasiga “xavfli residivist” va “o'ta xavfli residivist” tomonidan sodir etganlik uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi va alohida og'irlashtiruvchi tarkiblarni kiritishni taklif etgan. Mazkur taklif o'tkazilgan so'rovda qatnashgan respondentlarning 94 foizi tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

Muallif kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritganlik uchun obektiv va subektiv belgilariga ko'ra javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar moddaning bir qismida alohida bandlarga ajratilmagan holda belgilanganligi Jinoyat kodeksi Maxsus qism moddalarining tuzilish konstruksiyasiga mos kelmasligini ta'kidlab, bu borada ayrim xorijiy davlatlar (Armaniston, Gruziya, Tojikiston, Turkmaniston) tajribasini tahlil qilib, Jinoyat kodeksi 251<sup>1</sup>-moddasining 4 va 5-qismlarida belgilangan javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarni obektiv va subektiv belgilariga ko'ra alohida bandlarga ajratishni taklif etgan. O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, respondentlarning 89 foizi ham ushbu taklifni qo'llab-quvvatlagan.

Dissertatsiyada Jinoyat kodeksi 251<sup>1</sup>-moddasining 6-qismida nazarda tutilgan, kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni ishlab chiqarish, olish, saqlash, hisobga olish, berish, tashish yoxud jo'natish qoidalarini buzish jinoyatining subektiv tomon ayb shakli o'rganilib, A.V. Arxipov, L.V. Gotchina, L.V. Inogamova-Xegay, D.V. Karelin, V.P. Konyaxin, I.Ya. Kozachenko, G.P. Novoselov, A.A. Otajonov, M.L. Proxorova, L.M. Prozumentov, A.I. Rarog, M.V. Talan, A.I. Chuchayev, A.E. Shalaginlarning ushbu jinoyatning subektiv tomoni aybning ehtiyotsizlik shaklida ifodalanishi haqidagi fikrlari qo'llab-quvvatlangan holda A.N. Baydin, Yu.I. Lyapunov va M.H. Rustambayevlarning mazkur jinoyatning murakkab aybli jinoyat hisoblanishi haqidagi fikrlari bilan munozaraga kirishilib, ushbu jinoyat aybning faqat ehtiyotsizlik shaklida sodir etilishi asoslangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishni kvalifikatsiya qilish va uning uchun javobgarlik belgilangan normalarni takomillashtirish”** deb nomlanib, unda kuchli

ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish jinoyatini kvalifikatsiya qilish qoidalari, o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash masalalari hamda ushbu jinoyat uchun javobgarlik belgilangan normalarni takomillashtirish yo'nalishlari ilmiy va amaliy nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Uchinchi bobning birinchi paragrafi *“Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritishni kvalifikatsiya qilish qoidalari va uni o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash”* deb nomlanib, unda kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish jinoyatini kvalifikatsiya qilish hamda ushbu jinoyatni o'xshash tarkibli jinoyatlardan farqlash bilan bog'liq ayrim muammoli holatlar o'rganilib, ularning yechimiga doir taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan. Xususan, muallif kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish jinoyatini kvalifikatsiya qilishga oid masalalarga O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining *“Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”*<sup>4</sup>gi qarorida berilgan quyidagi tushuntirishlar munozarali ekanligini ta'kidlaydi:

qarorning 10-bandida aybdor tomonidan jinoyat predmetlarining faqat bir qismi qonunga xilof ravishda o'tkazilib, qolgan qismi keyinchalik surishtiruv yoki dastlabki tergov davomida aniqlangan hollarda, aybdorning harakatlari jinoyat predmetlarning umumiy miqdoridan kelib chiqib, qonunga xilof ravishda o'tkazish sifatida kvalifikatsiya qilinishi lozimligi belgilangan. Dissertantning fikricha ushbu tushuntirishga amal qilinsa, shaxs bunday moddalarning qolgan qismini shaxsan iste'mol qilish maqsadida saqlab kelgan, bu esa ish bo'yicha tayinlangan sud-narkologik ekspertizasi xulosasi va ishdagi boshqa dalillar orqali isbotlangan taqdirda ham, uning qilmishi bunday moddalarning umumiy miqdoridan kelib chiqib, qonunga xilof ravishda o'tkazish sifatida noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yuqorida nomi keltirilgan qarori 10-bandidagi *“aybdorning harakatlari kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli”* degan so'zlarni *“agar aybdor moddalarning mazkur qismini ham o'tkazish maqsadida saqlab kelganligi boshqa dalillar (masalan, sud-narkologik ekspertizasining shaxs bunday moddalarni iste'mol qilmasligi yoki qaram emasligi haqidagi xulosasi) bilan o'z tasdig'ini topgan taqdirda”* degan so'zlar bilan almashtirish taklif etilgan.

qarorning 11-bandida kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalar miqdorlari, shuningdek, ularni tayyorlash yoki qayta ishlash uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar (priborlar, apparatlar, asboblari, inshootlar, texnologik komplekslar va h.k.) oid masalalarni hal qilishda sudlar tegishli davlat organining Kuchli ta'sir qiluvchi moddalar ro'yxatiga (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentyabrdagi 818-sonli qaroriga 1-ilova) asoslanib berilgan xulosasiga amal qilishlari lozimligi belgilangan. Ishda keltirilishicha, jinoyat predmeti hisoblangan zaharli moddalar ro'yxati boshqa normativ-huquqiy hujjatda belgilanganligi, ularning miqdorlari, jinoyat predmetlarini tayyorlash yoki qayta ishlash uchun mo'ljallangan asbob-uskunalar

---

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenumining 2021-yil 27-noyabrdagi *“Kuchli ta'sir qiluvchi yoki zaharli moddalarni qonunga xilof ravishda muomalaga kiritish bilan bog'liq jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida”*gi 33-son qarori: <https://lex.uz/docs/5809125>.

ro'yxati, ularga qo'yiladigan talab yoki me'yorlar yoxud ularning ta'rifi birorta normativ-huquqiy hujjatda nazarda tutilmaganligi, ushbu masalalarda mazkur tushuntirishga rioya qilish imkonsizdir. Muallif tomonidan ushbu muammoli holatni bartaraf etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining yuqorida nomi keltirilgan qarori 11-bandini quyidagi tahrirda bayon qilish taklif etilgan:

*“Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalar miqdorlariga oid masalalarni hal qilishda sudlar tegishli davlat organining kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarning ro'yxatlariga asoslanib berilgan xulosasiga amal qilishlari lozim.*

*Kuchli ta'sir qiluvchi va zaharli moddalarni tayyorlash yoki qayta ishlash uchun mo'ljallangan asbob-uskunalarga (priborlar, apparatlar, asboblari, inshootlar, texnologik komplekslar va h.k.) oid masalalarni hal qilishda sudlar ishda tegishli davlat organining xulosasi mavjudligini tekshirishlari kerak”.*

